Annotatsiya. Zamonaviy menejer boshqaruvi iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada zamonaviy menejer boshqaruvining asosiy tamoyillari, strategik rejalashtirish, samaradorlikni oshirish, kadrlar boshqaruvi, innovatsiyalar va axborot texnologiyalarining roli haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Menejer, Professional, Product, Price, Place, Promotion, Menejer–innovator, diplomat, tadbirkor, miqdoriy yondashuv, tizimli yondashuv, funksional yondashuv, vaziyatli yondashuv.

Аннотация. В экономике важное значение имеет современный менеджерский менеджмент. В данной статье рассматриваются основные принципы современного управленческого менеджмента, стратегического планирования, повышения эффективности, управления персоналом, инноваций и роли информационных технологий.

Ключевые слова: Менеджер, Professional, Product, Price, Place, Promotion, Менеджер-новатор, дипломат, предприниматель, количественный подход, системный подход, функциональный подход, ситуационный подход.

Abstract. Modern manager’s management is important in the economy. This article discusses the main principles of modern managerial management, strategic planning, efficiency improvement, personnel management, innovation and the role of information technology.

Key words: Manager, Professional, Product, Price, Place, Promotion, Manager-innovator, diplomat, entrepreneur, quantitative approach, systematic approach, functional approach, situational approach.

Kirish. Hozirgi vaqtda tez rivojlanishni mo'ljallagan zamonaviy tashkilotlar uchun, innovatsiyani samarali joriy qilish, biznes rentabelligining ko'plab savollarini yechish bilan bog'liq hisoblanadi. Bu sohadagi yutuqlarga erishishning eng qulay yo'li tashkilot rahbarining uzluksiz istiqbolga erishish rejalarini amalga oshirish sharoitlarini ta'minlab berishi hisoblanadi. Ushbu ishlar bilan aynan tashkilot menejeri shug'ullanadi. Zamonaviy menejer deganda biz rahbarni yoki ish boshqaruvchini ko'z oldimizga keltiramiz, ya'ni ular maxsus tayyorgarlik ko'rgan boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini chuqur biluvchi ko'rsatmalardir. Menejerlar yollanma boshqaruvchilar bo'lib aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil etadi. Kompaniya firma, korxonalar, bank, moliya muassasalarining ijroiya hokimiyatga ega bo'lgan boshqaruvchi, direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchi kabilarning barchasi ham menejerlar deb yuritiladi. Ilm-fan va ishlab chiqarishning innovatsiyaga aylanib borayotgan hozirgi globallashtirish davrida boshqaruvning har qanday turi yoki tipidagi menejerlar, menejer novatorlarga aylanishini zamonamiz talab qilmoqda. Chunki kechagi yangi texnologiya o'z muddatini o'tamasdanoq bugunning eskisi hisoblanmoqda. Boshqaruvda marketing talablarining ham kuchayib borishi tashkilotlarda raqobatning ham kuchayishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai-nazardan zamonaviy boshqaruvchiga bo'lgan talab faqat dinamik xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Bu yo'nalishda Yevropa davlatlari, AQSH, Xitoy, Kanada, Yaponiya, Malayziya, Janubiy Koreya davlatlari oldinda bormoqda. Menejerlar tashkilotlar va kompaniyalarning samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydilar. Ularning boshqaruv usullari va qobiliyatlari tashkilotning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar. Biz hozirgi xaridorlar va iste'molchilarning yangi mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talablari ham keskinlashgan, o'zgaruvchan zamonda yashamoqdamiz. Hatto, juda ko'p yillar davomida o'ziga ma'qul bo'lgan, faqat aynan shu tashkilotlarning mahsulotlari va xizmatlariga o'rgangan va xarid qilgan iste'molchilar ham, birinchi navbatda yangi mahsulot va xizmatlarni xarid qilmoqdalar. Bu vaziyatda moddiy va nomoddiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi

korxonalar rahbari yoki menejerlar albatta o'zlari kutmagan raqobatga duch kelmoqdalar. Hozirgi iqtisodiyotda zamonaviy menejning o'rnini va ahamiyati juda katta. Zamonaviy menejning asosiy jihatlari:

1. **Strategik qarorlar qabul qilish:** Zamonaviy menejerlar tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun strategik qarorlar qabul qilishadi. Ular bozor tendensiyalarini tahlil qilish, raqobatchilarni kuzatish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradilar.

2. **Resurslarni samarali boshqarish:** Menejerlar tashkilotning resurslarini, jumladan, moliyaviy, insoniy va moddiy resurslarni samarali boshqarish orqali tashkilotning samaradorligini oshiradilar. Bu esa tashkilotning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

3. **Ishchi kuchini boshqarish:** Zamonaviy menejerlar ishchi kuchini boshqarish va motivatsiya qilishda muhim rol o'ynaydilar. Ular jamoa a'zolarining malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va samarali ishlash muhitini yaratish orqali tashkilotning umumiy samaradorligini oshiradilar.

4. **Innovatsiyalarni joriy etish:** Menejerlar yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish orqali tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradilar. Bu esa tashkilotning bozor talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

5. **Bozorni tahlil qilish va prognozlash:** Menejerlar bozorni tahlil qilish va kelajakdagi tendensiyalarni prognozlash orqali tashkilotning strategik rejalashtirishini amalga oshiradilar. Bu esa tashkilotning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi.

Zamonaviy menejerlar iqtisodiyotning turli sohalarida muhim rol o'ynaydilar va tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida katta ahamiyatga ega.

Menejer novator (yangi g'oyalar, yangi texnologiyalar bilan ishlovchi boshliq, rahbar) bir texnologiyaga va shu texnologiyaning ishlab chiqarish sharoitlariga o'rgangan va bu texnologiyadan ajralgisi kelmagan ishchilarini yangi texnologiyalar tizimiga o'tishning afzalliklari va samaradorligiga ishonitirishning uddasidan chiquvchi, ijodiy fikrlovchi, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan, axborotlaridan yaxshi

xabardor, tashkilotchi va tashabbuskor rahbardir. Menejer va rahbarlik uslubi: Boshqaruv funksiyalarni bajarishda va jamoat ishlab chiqarishda zamonaviy menejer sifatlari.

1. Rahbar diplomat. 2. Rahbar boshqaruvchi. 3. Rahbar murabbiy. 4. Rahbar innovator. 5. Rahbar inson. 6. Rahbar tadbirkor.

Salohiyatli innovatsion menejerning dunyoqarashi va fikrlashi standartsiz, qolipsiz bo'lishi, ular boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda hatto kam sonli bo'lsa ham o'zlarining haq ekanligini ilmiy-texnika yutuqlariga, zamonaviy boshqaruv usullariga asoslanib isbotlab beradilar va g'olib bo'ladilar. Novatorlar o'zlarida qat'iy ishonch bo'lishi uchun doimo izlanishda bo'ladilar. Mutaxassisligi yoki ixtisosligidan tashqari Jahon taraqqiyotidagi yangi texnologiyalar bilan tanishib boradi. Menejer novatorlar murakkab muammolarga duch kelishini va bu vaziyatlardan chiqilmasa «chet»da qolib ketishini juda yaxshi anglab olgan. Shuningdek, ular o'zlarining tashkilot yoki korxonada taqdiridagi o'rnini, mavqe'ini ham yaxshi anglab olgan. Zamonaviy menejmentda boshqaruvga turli yondashuv.

1. Tizimli yondashuv-tashkilotning ichki muhitiga (iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, siyosiy), e'tibor beradi.

2. Miqdoriy yondashuv-operatsion tamoyillarga, qaror qabul qilish nazariyasi tamoyillariga e'tibor qaratadi.

3. Funktsional yondashuv-boshqaruvga tashkiliy mexanizmlarni keng oqilona yo'llarini ishlab chiqishda ma'lum funksiyalarni, ya'ni rejalashtirish, tashkillashyirish, nazorat qilish, rahbarlik qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

4. Vaziyatli yondashuv-boshqaruvchi obyektining muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatga qarab boshqaruvning ma'qul usuli qo'llaniladi. Shunday qilib, har bir mutaxassisni, zamonaviy menejerni har taraflama baholash va tanlashning quyidagi to'rtta talablari asosida amalga oshirilishi to'g'ri deb topilmoqda:

1. Professional tayyorligi. 2. Psixologik sifatlari. 3. Umumiy madaniy darajalari. 4. Umumiy ilmiy darajalari.

1. Professional tayyorligi. Bu guruhga kiruvchilar uchun asosiy talab bilimlarni egallash hisoblanadi. Menejerning novator bo‘lishligi uchun u o‘rganishi talab qilinadigan fanlarning xili ko‘p. Bu fanlarni marketing elementlariga muvofiqlashgan holatlarda quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1. Product (mahsulot siyosati va mahsulotni ishlab chiqarish) –texnik fanlar, ishlab chiqarish texnologiyasi, huquqshunoslik va korxonaning iqtisodiyoti.

2. Price (baho siyosati va samarali baho tashkillanishining nazorati) –makro va mikroiqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, oliy matematika, statistika, moliyalar va kredit), soliq huquqi, buxgalteriya hisobi.

3. Place (bozor ulushini egallashdagi samaradorligi) –muzokaralarni olib borish texnikasi, merchendayzing.

4. Promotion (sotuv tizimining samaradorligi) –sotsiologiya, psixologiya, nisbiylik nazariyasi va statistika. Albatta, ko‘rsatilgan bu fanlarni mukammallik darajalarida o‘rganish juda murakkab, lekin menejer ularni yetarli darajalarda o‘rganishi va yetishmayotgan bilimlarni o‘rganishni davom etirishi kerak.

2. Psixologik sifatlari. Menejer-innovator do‘stona munosabatlar, ijtimoiy ishonchlilik, optimizm, tabiatsevarlik, muloqotlarda topqirlilik va aqllilik, hissiyot va sezgilarini bildirishda samimiyatlilik kabi jamlagan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishi talab qilinadi.

3. Uning ijtimoiy-psixologik yetishganligi quyidagilarda ma’lum bo‘ladi:

1. O‘zining odob-axloqi va bahosini namoyish etishda doimo egiluvchanlik tendentsiyalarini namoyish qilishi.

2. O‘zgaruvchan vaziyatlarni tezlikda anglab olishi;

3. O‘z-o‘zidan yoki ichki sabablar natijasida kelib chiqqan fikr-mulohazalarini rivojlantirishi;

4. Tabiiylik va oddiylik;

5. O‘zini qabul qilishining yuqori darajadali;

6. Odamlar bilan muloqotlarda o‘rinli va egiluvchanlik darajasi yuqoriligi;

7. Ijodga moyilligi; Shuningdek, menejer–innovator stressga barqarorligi va o‘zining fikrlari, mulohazalarini faqat faktlarga asoslanib keltirishi bilan ajralib turishi lozim.

4. Umumiy ilmiy darajasi. Menejer-innovator o‘rganishi va bilishi kerak bo‘lgan muhim va asosiy fanlarning o‘rnini ko‘rib chiqish mumkin. Falsafa sotsiologiya, iqtisodiyot, psixologiya, tarix, statistika, san’at kabi fanlarning menejer uchun qanchalik kerakligi albatta hammaga tushunarli bo‘ladi. Bu fan yordamida menejer ijodga qiziqadi, o‘zining ziyoliligi darajalarini oshiradi.

Xulosa. Keltirilgan ro‘yxatlar menejer o‘rganishi va o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan fanlar bilan chegaralanmaydi. U juda ko‘p fanlarni o‘rganib va o‘zlashtirib o‘zining bilimi, madaniyati, komilligi va dunyoqarashlarini doimo kengaytirib borishi lozim.

Zamonaviy menejerga talablar. Vaqt o‘tgan sari tashkilotlar, korxonalarining tiplari va turlari ko‘payib boradi. Shu holatga bog‘liq menejerlar ham oldindagi o‘zgarishlar va yangi talablarga doimo tayyor turishlari kerak. Jahon menejmentining tajribalaridan ma’lumki, professional menejmentni va professional personalni intensiv ravishda tayyorlab borish doimiy o‘zgarib turadigan ichki va tashqi muhit sharoitlarida kompaniyaning yashab qolishini ta’minlaydi. Bu masala O‘zbekiston sharoitida hali to‘ligicha hal qilinmagan. Professional menejerlarni tayyorlamalik har qanday tashkilotning o‘z-o‘zini boshqarish rejimiga va istiqbolli taraqqiyotga o‘tishini sekinlashtiradi. Shuning uchun ham jahonning ko‘p davlatlarida professional menejer oldiga ko‘plab talablarni qo‘yishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мардас А. Н., Гуляева О. А. Теория менеджмента. —М.: Юрайт. 2024. 294 с.
2. Yo‘ldoshev.N.Q. Menejmentga kirish. Darslik T-2021
3. Zaynutdinov Sh.N. “Menejmentnazariyasi”. Darslik. Iqtisodiyot, 2014.
4. Shoimardonkulovich, Y. D., Kadirovna, S. N., & Javohir, D. (2024). The Green Economy as a Factor of Sustainable Development. *Miasto Przyszłości*, 47, 133-135
5. Sherov, A. U., & Sharapova, N.K. (2022). The impact and importance of natural resources on economic growth.
6. Igamova, S. (2021). The Role Of The State In The Innovative Development Of Industrial Enterprises. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 8(8).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15005332>

IJODKOR RASSOMNING BIR VAQTNING O‘ZIDA MENEJERLIK FAOLIYATI BILAN SHUG‘ULLANISHINING RUHIY VA PSIXOLOGIK MAS‘ULIYATI

Nasirdinov Avazbek

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘qituvchisi

nasirdinovichavazxon@gmail.com

***Annotatsiya:** Hozirgi zamonda rangtasvir sohasi rassomlari nafaqat ijodiy jarayonni olib bormoqda, balki o‘z asarlarini targ‘ib qilish, sotish va marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ham faol ishtirok etishga intilishmoqda. Bu esa rassomlarni menejerlik faoliyati bilan shug‘ullanishi demakdir. Shu bilan birga, bunday ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirish rassomning ruhiy va psixologik holatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:** rassom, menejer, marketing, Ijod, asar.*

Kirish. Rassomning menejerlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ijodiy jarayonga ruhiy-psixologik ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan: Rassom o‘z ijodiga e‘tibor qaratishi bilan bir vaqtda tijoriy masalalar bilan ham shug‘ullanishi kerak bo‘ladi. Bu esa ijodiy erkinlik va biznes talablarini o‘zaro qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatli menejer bo‘lish uchun doimiy rejalashtirish, mijozlar bilan muzokaralar va san‘at bozorining o‘zgarishlarini kuzatib borish talab etiladi. Bu esa stress va charchoqni oshirishi mumkin. Ijodkor bir vaqtning o‘zida ham rassom ham menejer faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lar ekan o‘z-o‘zini intizomga o‘rgatishi, moliyaviy barqarorlik uchun rejalar tuzish va unga rioya qilishga majbur bo‘ladi. Bu

esa ijodiy jarayonni cheklashi yoki kechiktirishiga sabab bo'ladi buning natijasida rassomlikni asosi ijod bilan faol shug'ullana olmasligi ruxiy psixiologik bosimni oshiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rassomlar uchun ijodiy jarayon nafaqat asar yaratish, balki o'z asarlarini keng ommaga taqdim etish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyati hamdir. Menejerlik faoliyati bilan shug'ullanishning ruhiy va psixologik zarurati shundaki: Rassom o'z asarlarini sotish jarayonini mustaqil boshqarganida, u moliyaviy jihatdan o'zga shaxsga bog'liq bo'lmaydi va o'z ijodini qanday targ'ib qilish kerakligini va ommaga qaysi turdagi kartina ma'qul ekanligini yaxshiroq anglaydi. Menejerlik qobiliyati rassomga o'z yo'nalishini mustaqil shakllantirish, ko'rgazmalarni tashkil etish va o'z auditoriyasini topish imkonini beradi. Ko'plab rassomlar o'z ijodidan daromad topish imkoniyatiga ega bo'lmagani sababli, boshqa ish bilan shug'ullanishga majbur bo'lishadi. Menejerlik bilimlari esa ularning faqat ijodiy jarayon orqali tirikchilik qilishiga yordam beradi. O'z asarlari muvaffaqiyatli sotilganda va auditoriya tomonidan qadrlanganda, rassomda ijodga bo'lgan ishtiyoq kuchayadi.

Lekin rassomning ijodva menejerlik faoliyatini birlashtirish jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan: Ijodga hos erkin fikrlash va biznes jihatidan tafakkur qilish o'rtasidagi ziddiyat – San'at jarayoni erkin va intuitiv bo'lsa, menejerlik faoliyati rejalashtirish, strategiya va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu esa ijodiy shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Stress va charchoq – Menejerlik faoliyati vaqt va kuch talab qilgani sababli rassom ijodiy faoliyatda faol shug'ullana olmaydi aniqrog'i ijod uchun ichki energiya yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. O'ziga ishonchsizlik va tanqid qo'rquvi – O'z asarlarini targ'ib qilish va sotish rassomning omma bilan muloqotini oshiradi, bu esa o'ziga nisbatan ishonchsizlik, tanqidni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Mablag' va xarajatlar muammosi – Ijodiy jarayon uchun zarur materiallar, reklama, ko'rgazmalar tashkil etish katta mablag' talab qiladi. Bu esa moliyaviy bosimni oshiradi va stress keltirib chiqarishi mumkin. Ijodiy blok va motivatsiya yo'qolishi – Menejerlik

ishlariga haddan ortiq e'tibor berilganda, rassom ijodiy blokka duch kelishi yoki san'at bilan shug'ullanishga bo'lgan motivatsiyasini yo'qotishi mumkin.

Natijalar. Rassomlar uchun menejerlik faoliyatidagi psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin: Vaqtni samarali boshqarish – Ijod va menejerlik ishlarini muvozanatli taqsimlash uchun kunlik va haftalik reja tuzish zarur. Delegatsiya va hamkorlik – Marketing, sotuv va ijtimoiy tarmoqlarga oid vazifalarni bajarish uchun yordamchi yoki agentlar bilan ishlash rassomning yukini kamaytiradi. Motivatsiya va psixologik barqarorlikni oshirish – Shaxsiy motivatsiyani saqlash uchun maqsadlar qo'yish, ijodiy muvaffaqiyatlarni nishonlash va ichki ilhomni yo'qotmaslik muhim. Moliyaviy savodxonlikni oshirish – San'at orqali daromad olish bo'yicha bilimlarni o'rganish, narxlash strategiyalarini ishlab chiqish rassomning moliyaviy xavotirini kamaytiradi. Psixologik tayyorgarlik va stressni boshqarish – Meditatsiya, sport va boshqa dam olish usullari rassomga ruhiy bosimni kamaytirishda yordam beradi. Tanqidni to'g'ri qabul qilish – Tanqidni shaxsiy hujum sifatida emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilish san'at sohasida psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Rassom menejerlik faoliyatini o'z zimmasiga olar ekan, u ruhiy va psixologik mas'uliyatlarni ham qabul qilishga majbur bo'ladi. San'at bozorida muvaffaqiyatli bo'lish uchun rassom o'zining imidjini doimiy ravishda saqlashi va rivojlantirishi kerak. Menejerlik faoliyati rassomning ijodiy jarayoniga zarar yetkazmasligi uchun u o'z energiyasini to'g'ri taqsimlashi lozim. San'at bozori auditoriya bilan samarali muloqotni talab qiladi. Bu esa rassomdan ijtimoiy ko'nikmalar va diplomatiya talab etadi. Rassom o'zining ijodiy tamoyillaridan voz kechmay, bozor talablariga ham moslashishi lozim. San'at bilan bog'liq biznes va marketing sohalarida bilim olish rassom uchun doimiy jarayon bo'lishi kerak.

Xulosa. Rassomning menejerlik faoliyati bilan shug'ullanishi zamonaviy san'at bozorida o'z o'rnini topish, moliyaviy barqarorlik va ijodiy erkinlikka erishish uchun muhim strategiyalardan biridir. Biroq bu jarayon psixologik bosim, stress va ijodiy inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, vaqtni to'g'ri boshqarish, moliyaviy savodxonlik, stressni kamaytirish va psixologik barqarorlikni oshirish orqali bu muammolarni yengish mumkin. Rassom o'zining ijodiy va menejerlik faoliyatini uyg'unlashtirgan holda, san'at va biznesni muvozanatda ushlashga intilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ilyina T.V. San’at tarixi-M., 2003- 407 b.
2. Kollektiv ijodkorlik - art azbuka, ed. Maks Fry
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi – 2000-2005y.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15005348>

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Xudoyqulova Malika Eshquvatovna

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani

20-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta’lim maktabi o‘quvchilariga biologiya fanini o‘rgatishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati, avzalliklari, metod va vositalari yoritib berilgan. O‘qituvchilar darslarni qiziqarli ravishda amalga oshirishi uchun didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta o‘rin egallashi bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** interfaollik, o‘yin texnologiyasi, didaktik o‘yinlar, biologiya fani, savol-javob o‘yinlari.*

***Annotation.** This article highlights the importance, advantages, methods and tools of didactic games in teaching biology to students of a comprehensive school. The importance of didactic Games has been described as having a great place for teachers to carry out classes in an interesting way.*

***Keywords:** interactivity, game technology, didactic games, biology science, question and answer games.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bilim olish jarayonini yanada samarali qilish maqsadida didaktik o‘yinlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, biologiya fanida o‘yin metodlari o‘quvchilarning bilim,

ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlarning ahamiyati va ularning samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

Muhokama va natijalar

Didaktik o'yinlarning mohiyati va ularning biologiya ta'limidagi roli

Didaktik o'yinlar – o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga, ularning tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'yin shaklidagi ta'lim metodidir. Biologiya fanida ushbu o'yinlar yordamida o'quvchilar murakkab tushunchalarni osonroq tushunib oladilar va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Biologiyada qo'llaniladigan didaktik o'yin turlari quyidagilardan iborat:

Rol o'yinlari: O'quvchilar hayvonot yoki o'simlik dunyosi vakillariga aylanib, ularning hayot tarzi, ekologik o'rni va o'zaro bog'liqligini o'rganadilar. Masalan, "*Ekotizimdagi hayot*" o'yini orqali o'quvchilar o'simliklar, o'txo'r va yirtqich hayvonlar rolini o'ynab, ularning o'zaro bog'liqligini tushunib yetadilar. Yoki "*Genetik olam*" o'yini orqali irsiyat va mutatsiyalar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Savol-javob o'yinlari: Tezkor fikrlashni rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

- "**Kim tez javob beradi?**" – o'qituvchi savollar beradi va o'quvchilar eng tez va to'g'ri javobni topishga harakat qiladilar.

- "**Biologik domino**" – o'quvchilar savollarga javob berib, o'z navbatlarini belgilaydilar va to'g'ri javoblar orqali zanjir yaratadilar.

- "**To'g'ri yoki noto'g'ri**" – o'quvchilarga biologik faktlar aytiladi, ular esa to'g'ri yoki noto'g'ri deb baho beradilar.

Krossvord va viktorinalar: Biologik atamalar, jarayonlar va tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya o'yinlari: Tajribalar orqali bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Didaktik o‘yinlarning afzalliklari

O‘yinning maqsadi- ta’lim olishga, fanga, kitobga qiziqish uyg‘otish va diqqatini ta’lim jarayoniga qaratishdir. Didaktik o‘yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg‘otadi va yangi ma’lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu kabi o‘yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirilishiga, chuqurlashtirilishiga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. O‘z navbatida o‘quvchilarda go‘zal va boy ona tilimizdan g‘ururlanish, axloqiy qadriyatlarimizni e‘zozlash kabi sifatlarni shakllantiradi.

Didaktik o‘yinlarni tanlashda o‘quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib qoidalariga rioya qilinadi:

Didaktik o‘yinlar tanlash va ulardan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi;

Tanlangan har bir o‘yin o‘quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga ruhan tayyorlaydi;

Didaktik o‘yin turlarini tanlash mezonlar quyidagilardan iborat:

- ishtirokchilar tarkibiga ko‘ra;
- ishtirokchilar soniga ko‘ra;
- o‘yin jarayoniga ko‘ra;
- vaqt meyorlariga ko‘ra;

Dars jarayonida o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tahlil qilish bosqichlarini aniq belgilab olish lozim. Quyida ona tili, matematika, o‘qish darslarida qo‘llanilayotgan bir necha didaktik o‘yinlardan namunalar keltiramiz

1. *Qiziqarli va interfaol o‘qitish:* O‘quvchilar o‘yin jarayonida faol ishtirok etib, dars materiallarini o‘zlashtirishga qiziqish bildiradilar.
2. *Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish:* O‘yin orqali biologik tushunchalar chuqur anglash va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

3. *Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish*: O'yinlar guruh bo'lib ishlashni rag'batlantirib, o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantiradi.
4. *Yod olish va eslab qolishni osonlashtirish*: Ma'lumotlarni eslab qolish jarayoni didaktik o'yinlar yordamida ancha tezlashadi.
5. *Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish*: O'quvchilar berilgan vaziyatni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Xulosa

Biologiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularga bilimlarni mustahkamlash va amaliy hayotga tatbiq etish imkonini beradi. O'yinlar orqali olingan bilimlar uzoq muddatga saqlanib qoladi va o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Shuning uchun zamonaviy ta'limda didaktik o'yinlardan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xodjamkulov, U.N.; Xudayqulova, F.B. (2021). Kelajak o'qituvchisi konsepsiyasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(3), 130- 135.
2. Xudayqulova, F.B. (2022). Ta'lim tizimini boshqarish. O'qituvchi ilmiy uslubiy metodik va badiiy jurnali, 3(9), 69-72.
3. Худайкулова, Ф.Б. (2022). ЛАБОРАТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 48-53.
4. Xudayqulova, F.B. (2021). Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1668-1671.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15005374>

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDAGI MANTIQUIY MASHQLAR

Tulyaganova Madina Xayrulla qizi

Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlar nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darsidagi mantiqiy, rivojlantiruvchi mashqlar haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: mantiq, tafakkur, predment, to‘g‘ri fikrlash, logik mashq.

Аннотация. В статье представлена информация о логических и развивающих упражнениях на уроках родного языка для учащихся начальной школы.

Ключевые слова: логика, мышление, преднамеренность, правильное мышление, логическое упражнение.

Abstrakt. This article provides information about logical and developmental exercises in the mother tongue lesson for primary school students.

Keywords: logik, thinking, premeditation, correct thinking, logical exercise.

Mantiqiy mashqlar bu o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuasidir. Ular turli fanlarda, ona tili darslarida ham keng qo'llaniladi.

Mantiqiy mashqlar o'quvchilarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchilar maktabga kelganda, ko'p lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumiyashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi ayniqsa, bilish faoliyatining obykti aniq predment emas, uni ifodalovchi so'zlar bo'lsa. Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predment va hodisalardan muhimini, umumiyisini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni material tomonidan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi.

Mantiqiy mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bolib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib boriladi. Logik mashqlar xilma-xil masalan:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (ko'ylak, kostum...) va oyoq kiyimlar (botinka, tufli...); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar "Bu nima?" so'rog'iga javob berishga o'rgatiladi; Bu nima?- Avtobus. Avtobus nima?- Mashina.

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko'rsatish va umumlashtiruvchi bir so'z bilan nomlash. Masalan, stol, stul, shkaflarni bir so'z bilan qanday nomlash mumkin; (mebel)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarni ajratish. Masalan, qalam, chizig'ich, o'chirg'ich, stul ko'rsatiladi, o'quvchilar o'quv qurollarini ajratadilar, stul o'quv quroligakirmasligini, mebel ekanini aytadilar.

Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha.

4. Predment nomlari va belgi bildiradigan soʻzlarni guruhlarga ajratish. Bunda soʻzlar choynak, tesha, boltapiyola, arra, tarelka kabi aralash beriladi. Oʻquvchilar guruhlab, idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi; tesha, bolta, ... kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan soʻzlar ham aralash beriladi, bolalar toʻrt guruhga (rang, maz, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qoʻyish bilan umumiyashtirish; qaldirgʻoch, chumchuq, bulbul-qushlar, tovuq, xoʻroz, kurkalar-chi? (parandalar).

Mantiqiy mashqlar sarmazmun boʻlishi, oʻquvchilarning tajribasi bilan bogʻlanishi, ularni toʻgʻri fikrlashga oʻrgatilishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlardan oʻrni bilan boshqa darslarda ham, oʻqish va grammatika darslarida ham foydalaniladi.

Mantiqiy mashqlar oʻquvchilarni mustaqil tahlil qilish, dalillash va mantiqiy bogʻliklarni tushunishga oʻrgatadi. Hamda bunday mashqlar matndagi maʼlumotlarni tez va aniq qabul qilish, ularni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

Darslardagi mashqlardan soʻzlar orasidagi bogʻlanishni topish topshirigʻi “Qalam yozish uchun, qoshiq-?” (yechim ovqatlanish).

Ortib qolgan soʻzlarni topish mashqi “Olma, nok, shaftoli, piyoz” (piyoz ortiqcha, chunki u sabzavot).

Shartli mantiqiy gaplar “Agar barcha oʻquvchilar darsga kelsa, oʻqituvchi test oʻtkazadi. Oʻqituvchi test oʻtkazmadi. Demak...” (hamma oʻquvchilar darsga kelmadi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.Gʻulomova, Sh . Yoʻldoshova. Ona tili oʻqitish metodikasi. 2009.
2. ” Ona tili darslarida oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashga oʻrgatish” maqolasi. Nosirova Munisa. 2023.
3. “Ona tili” darsligi 2-sinf. 2020.
4. Ziyonet portali “ Ona tili oʻqitish metodlari” qoʻllanma.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15005404>

BAG‘RIKENGLIK FENOMENINING IJTIMOIIY MOHIYATI

N.Kunisheva

Angren universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası

Katta o‘qituvchisi

n.kunisheva@auni.uz

***Annotatsiya:** Bag‘rikenglik -bu turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan va turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan murakkab, ko‘p ma‘noli tushuncha. Jamiyatda har doim siyosiy, diniy, milliy, ijtimoiy va boshqa nizolar yuzaga kelganligi sababli bag‘rikenglikning ko‘plab ta‘riflari mavjud. Har bir davr olimlari bag‘rikenglik haqidagi tushunchalaridan foydalanib, mavjud qarama-qarshiliklarni hal qilishning turli usullarini taklif qilishadi va rivoj topib boradi. Xar bir davrda ijtimoiy bag‘rikenglik, milliy mafkura va din yangi zamonaviy ko‘rinishshda va uyg‘unlikda ifodalanib boradi. Мазкур мақолада жамиятда ижтимоий бағрикенгликнинг ўрни ва феноменал аҳамияти ҳақида сўз юритилган.*

***Kalit so‘zlar:** Bag‘rikenglik, etnik toqatlilik, vijdon erkinligi, uqtisodiy bag‘rikenglik.*

***Ключевые слова:** Толерантность, этническая толерантность, свобода совести, экономическая толерантность.*

***Key words:** Tolerance, ethnic tolerance, freedom of conscience, economic tolerance.*

KIRISH.

Bag‘rikenglik dunyodagi turfa madaniyatlar, turli xalqlar milliy qadriyatlarini, an‘ana va urf-odatlarini hurmat qilishni anglatadi. Bunday bag‘rikenglik keng dunyoqarash, samimiy munosabat, hur fikr, vijdon va e‘tiqod negizida vujudga keladi. Bag‘rikenglik faqat ma‘naviy burchgina emas, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir.

Bag‘rikenglik eng avvalo, insonning huquq va erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir.

Bag‘rikenglik jamiyat hayotining barcha sohalari hamda ijtimoiy hayotning tuzilishida ijtimoiy sub’ektlar o‘zaro ta’sir va aloqada bo‘ladigan barcha darajalarida namoyon bo‘ladi. Bunday soha va darajalar o‘rtasida murakkab bog‘lanishlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi birgalikda yaxlit ijtimoiy bag‘rikenglik manzarasini aks ettiradi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Millatlararo munosabatlar bilan bog‘liq masalalar doirasida “etnos” hamda “etnik toqatlilik”, “etnoslararo hamjihatlik” kabi atamalar ham keng qo‘llaniladi. Shu bilan bog‘liq ravishda mutaxassislar tomonidan etnik bag‘rikenglikka doir ilmiy nuqtai nazarlar ilgari surilganini ta’kidlash joiz. Jumladan, N. M. Lebedeva fikricha, bunday shakldagi bag‘rikenglik **“o‘z madaniyatini pozitiv qabul qilish hissini saqlab qolgan holda o‘zga madaniyat haqida pozitiv obrazga ega bo‘lishni anglatadi”** [10, b. 52].

Biroq ushbu ta’rif juda primitiv va yuzaki xarakterga ega, zero, unda etnik bag‘rikenglikning mohiyatini tashkil etgan u yoki bu asosiy unsur aniqlanmagan va izohlanmagan holda faqatgina hodisaning ijobiy xususiyatga ega ekaniga ishora qilingan.

T. P. Dneprova etnik bag‘rikenglik haqida quyidagicha fikr bildirgan: “o‘zgacha an’ana va madaniyatga nisbatan hurmatga asoslangan munosabat ifodalaydigan ijtimoiy-psixologik tavsif, turli etnik guruhlarning o‘zaro tinch-totuv hayot kechirish va o‘zaro ta’sirlashishga bo‘lgan intilishlaridir” [6, b. 96].

Ma’lumki, qadim-qadimdan turli millat va elat vakillari tinch-totuv birgalikda hayot kechirib kelayotgan O‘zbekiston zaminida millatlararo bag‘rikenglik xalqimiz madaniyatining eng muhim belgisi sifatida alohida qadrlanadi. Milliy istiqlol mafkurasi tizimida “millatlararo totuvlik – muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha” [1, b. 204], deb ta’riflangan.

O‘zbekistonda diniy erkinlik, e’tiqod va xavfsizlik masalalari bir-biridan alohida ko‘rib chiqilmaydi. Bayrut deklaratsiyasi va unda o‘z aksini topgan “Inson huquqlari uchun e’tiqod”ga oid 18 ta majburiyatga taalluqli qoidalarni qo‘llab-quvvatlagan holda, xalqimiz referendumda yangilangan Konstitutsiyani qabul qildi. Unda Yangi O‘zbekistonning “besh tayanchi”, ya’ni O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani (1-modda) ta’kidlanib, mamlakat kelajagi belgilab berildi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida har kimning vijdon erkinligi kafolatlangan, har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi (35-modda).

Dunyoviylik va vijdon erkinligi tamoyillariga asoslanib, yangilangan Konstitutsiyada tenglik, har bir insonga teng hurmat, vijdon erkinligi kafolatlandi, davlat diniy ishlarga aralashmasligi, ya’ni din va davlatning bir-biridan ajratilganligi mustahkamlandi (75-modda).

NATIJALAR.

Bizning rang-barang dunyomizda bag‘rikenglik va kamsitmaslik tushunchalari nafaqat ideal (istak-intilish), balki zarurat hamdir. O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, jamiyatda millatlararo, konfessiyalararo va fuqarolararo totuvlikni mustahkamlashdir.

Albatta, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar nafaqat ma’naviy-axloqiy, balki mustahkam huquqiy asoslarga ham ega. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” [2, b. 3], – deb belgilangan. Ayni paytda, O‘zbekistonda 1995 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Irtiy diskriminatsiyaning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi Konvensiya”ni ratifikatsiya qilingan.

Mavjud ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy shart-sharoitlar tufayli hozirda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Ularning har biri uchun

o'zlarining milliy tili, dini, urf-odat va an'analari va umuman madaniyatini asrabavaylash, yanada rivojlantirishga qaratilgan sharoitlar ham muntazam takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, bugungi kunda mamlakatimizda 150 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda.

MUHOKAMA

Nazariya va amaliyotda millatlararo totuvlik aksariyat hollarda diniy bag'rikenglik, diniy toqatlilik kabi iboralar bilan parallel ravishda ishlatiladi. Shu ma'noda, ijtimoiy bag'rikenglikning muhim shakllaridan biri sifatida diniy bag'rikenglik diniy toqatlilikka nisbatan mazmunan keng tushuncha bo'lib, to'plovchi xususiyatga ega.

Jumladan, u toqatlilik bilan birgalikda hurmat, e'tibor, xayrixohlik kabi mohiyatan bag'rikenglik kategoriyalarini ham o'z mazmuniga singdiradi. Ayni paytda, diniy toqatlilik diniy bag'rikenglikning muhim belgilaridan biri sifatida chiqsa-da, uning yagona sharti bo'la olmaydi. Zero, diniy bag'rikenglikni xarakterlaydigan hurmat, e'tibor, xayrixohlik, toqatlilik kabi kategoriyalarning hech biri mutlaq o'rin tutmaydi, balki ular o'rtasida o'zaro ta'sir va taqozo aloqalari amal qiladi. Boshqacha aytganda, turli tarixiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy sharoit va vaziyatda hamda turli ijtimoiy sub'ektlar darajasiga ko'ra ulardan biri boshqalarining kelib chiqishi va rivojlanishi uchun asosiy omil vazifasini bajaradi.

Diniy toqatlilik eng umumiy ma'noda o'z dinining o'rni va ahamiyatini unutmagan holda boshqa dinlarni tan olishda namoyon bo'ladi. Diniy va dunyoviy madaniyat elementlarining o'zaro samarali assimilyatsiyasi toqatlilik va bag'rikenglik shakllanishi va rivojlanishining muhim sharti sifatida chiqadi.

Bag'rikenglik o'zaro bir-birini befarqlik asosida aks ettirish emas, balki o'zaro tushunish, muloqotga kirishish va hamjihatlikda hayot kechirishga intilishlarda o'z aksini topadi. Diniy bag'rikenglik erishish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Shuning uchun ham bu muammo tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlaridan dolzarb hisoblanadi. Diniy bag'rikenglik voqe bo'lishi ko'p jihatdan uning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan diniy toqatlilikka bog'liqdir.

Zero, diniy toqatlilik hatto o‘zaro ayrim tushunmovchiliklar, e‘tiborsizliklar, antipatiyalar o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sharoitlarda ham turli din vakillari o‘rtasidagi o‘zaro diniy qadriyatlar, urf-odat va an‘analar hamda turmush tarziga nisbatan sabr va bardoshli munosabatlarni ifoda etadi. “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da ta‘kidlanganidek, “Bag‘rikenglik – turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma‘naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir” [5].

Shu ma‘noda, ijtimoiy bag‘rikenglikning muhim ko‘rinishlaridan biri – bu, siyosiy bag‘rikenglikdir. Mazkur tushuncha ijtimoiy fanlar tizimidagi yangi atamalardan biri hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da, siyosiy bag‘rikenglikni ijtimoiy bag‘rikenglik tizimining muhim elementlaridan biri sifatida ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish zarur. Zamonaviy nemis faylasuf olimi Yu. Xabermas shunday yozadi: “bag‘rikenglik – liberal jamiyat fuqarolaridan talab qilinadigan siyosiy fazilat bo‘lib, o‘z navbatida, siyosiy jarayonda u yoki bu o‘zaro munosabatlar ishtirokchilarining fikr va qarashlar o‘zaro zid kelgan sharoitlarda o‘z nuqtai nazarlarining chinligiga shubha qilmagan holda, biroq muammoli vaziyat xususida muxolif qarash va yondashuvlarning ham ifoda etilishiga imkon berishga tayyorlik va shu orqali o‘zaro munosabatlarning umumiy asoslarini saqlab qolishga intilish bilan bog‘liq konstruktiv xatti-harakatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi” [11, b. 45–53].

Ayni paytda, ta‘kidlash joizki, siyosiy bag‘rikenglik siyosiy demokratiyaning ajralmas atributiv qismlaridan biridir. Zero, u kishilarning davlat ahamiyatiga molik masalalar yuzasidan aniq va puxta ishlab chiqilgan qarashlarini, sog‘lom siyosiy raqobat maydonida o‘zini namoyon qilishga qodir ijtimoiy birlashmalarning faoliyatini, faol ijtimoiy interaksiya, ya‘ni intensiv o‘zaro ta‘sir va munosabatlar tizimini va eng muhimi, siyosiy jarayon sub‘ektlarining oqilona, ongli yaxlitligi, birligini o‘z mazmuniga jo qiladi.

Ta‘kidlash joizki, siyosiy bag‘rikenglik va siyosiy toqatsizlikka asoslangan xatti-harakatlar va faoliyatning sub‘ekti sifatida davlat va uning nomidan faoliyat olib

boradigan ijtimoiy va siyosiy institutlar, ob'ekti sifatida esa, alohida olingan shaxs, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, millat, elat va h.k. ijtimoiy kuchlar namoyon bo'ladilar.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga asoslangan xo'jalik yuritish shakli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sub'ektlari uchun zarur erkinlik va sog'lom raboqat muhitining yaratilishini taqozo etadi. Shuningdek, o'zining xususiyatiga ko'ra, iqtisodiy munosabatlar irqi, millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar aksariyat insonlarni qamrab oladigan sohalardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, moliyaviy iqtisodiy manfaatlar insonlarni o'zaro har qanday mazmun va shakldagi farq va tafovutlarni bo'rttirmay, ularni ikkinchi darajaga surgan holda o'zaro munosabatlarga kirishishga undaydigan qudratga ega.

Bunday holat, ijtimoiy bag'rikenglikni mustahkamlashda iqtisodiyotning ulkan salohiyatga ega ekanini anglatadi. Ayni paytda, iqtisodiy hamkorlik aloqalarining o'zi ham ochiq, shaffof, erkin, teng huquqli, o'zaro hurmat tamoyillariga rioya etishni taqozo etadi va bu tegishli huquqiy normalarda ham o'z aksini topadi. Mazkur fikrlar ijtimoiy bag'rikenglikning yana bir shakli – iqtisodiy bag'rikenglik haqidagi mulohazalarni ilgari surishga yetarli imkon beradi. Bu borada, ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan ayrim yondashuvlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

